

**Shahrisabz davlat pedagogika institutida 2022- yil DEKABR oyida talaba-yoshlar bilan o'tkazilgan
ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar haqidada
MA'LUMOT**

T\P	O'tkazilgan sana, jo'i, vaqt Tadbir nomi , mavzusi	Tadbir tashkilotchilari, ishtirok etganlar, Taklif etilganlar	Fotolavhalar	O'tkazilgan sana, joyi, vaqt
1.	<p>TALABALARING DARSDAN BO'SH VAQTINI MAZMUNLI O'TKAZISH maqsadida, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi va Texnologik ta'lim yo'nalishi tyutorlari G.Daminova, D.Toshpo'latova, M.Yorboboyevalar tomonidan o'zlariga biriktirilgan talabalari ishtirokida Shahrisabz shahri bo'ylab sayohat uyuştirildi. Sayohat davomida "Oq saroy" majmusidagi tarixiy joylar ziyorat qilindi. Shu bilan birqalikda "Hunarmandlar" markazidagi qo'l mehnati namunalari bilan ham yaqindan tanishilib, soha mutaxassislari tomonidan talaba-qizlar uchun "Mahorat darsi" tashkil etildi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari, ishtirok etganlar, Taklif etilganlar</p>   	 	2022-yil 1-dekabr Shahrisabz bo'ylab sayohat
2.	<p>INSHO TANLOVNING VILOYAT BOSQICHI G'OLIBI BO'LDI Shahrisabz davlat Pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi Sirojiddinova O'g'iloy Qarshi shahrida o'tkazilgan "Korrupsiyaga qarshi birqalikda kurashamiz" mavzusidagi insholar tanlovida faxrli birinchi o'rinni egalladi. Talaba qizimizning kelgusi ishlarida ham zafarlar tilaymiz!</p>			2022-yil 1-dekabr Qarshi sh

3.	<p>5 MUHIM TASHABBUS. 4-YO'NALISHI "ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATI"</p> <p>Tillar fakulteti O'zbek adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi G.Umarova O'zbek adabiyoti fanidan O'TA-5-20-guruh talabalari ishtirokida "Abdulla Oripor she'riyati" mavzusida ochiq dars mashg'uloti o'tkazdi. Dars davomida shoir ijodining falsafasi, hozirgi zamon yoshlari hayotidagi ahamiyati mavzulariga alohida to'xtalib o'tildi. "Zanjir", "Aqliy hujum", "Kva Irat" va boshqa metodlarning qo'llanishi darsning mazmunli tashkil etilishini ta'minladi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilar: -O'zbek tili va adabiyoti ka.edrasi; - Tillar fakulteti dekan o'rinosari M.Nurbayeva Qatnashganlar: Talabalar</p>		<p>2022-yil 1-dekabr Tillar fakulteti</p>
4.	<p>1-DEKABR – BUTUNJAHON OITSGA QARSHI KURASH KUNI</p> <p>Jahon hamjamiyatini ogohlarga chaqirish, aholining orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) haqidagi xabardorlik darajasini oshirish, shuningdek, bu dardga chalingan insonlarga tibbiy, moddiy va ruhiy yordam ko'rsatishni ta'minla n mas'adida 1988-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan har yilning 1-dekabr sanasi Butunjahon OITSga qarshi kurash kuni deb e'sloq qilingan.</p> <p>BMTning OITSga qarshi kurash tashkiloti („N.AIDS“) tashabbusi bilan bu sana "Xalqaro hamjihatlik, umumiy mas'aliyat" shiori ostida o'tkaziladi.</p> <p>TI da shu mavzuga oid davra suhbatি o'tkazildi</p>	<p>Tadbir tashkilotchilar: -O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi; - Tillar fakulteti dekan o'rinosari M.Nurbayeva Qatnashganlar: TTJ talabaları</p>		<p>2022-yil 1-dekabr Tillar fakulteti TTJ</p>
5.	<p>5 MUHIM TASHABBUS. 2-YO'NALISHI</p> <p>Shahrisabz davlat pedagogika institutida FUTBOL BO'YICHA FINAL uchrashuvi Finalda 1-21 va 5-21 guruhlar o'zaro bahslashadi. Uchrashuv 2-dekabr kuni o'tkaziladi. Boshlanish vaqt - 11:00da Pedagogika fakultetida</p>		<p>2022-yil 2-dekabr Pedagogika fakulteti</p>	

6.	<p>"KIBERXAVFSIZLIK DAVR TALABI"</p> <p>Pedagogika fakultetida Qashqadaryo viloyati IIB Kiberxavfsizlik bo'limi katta tezkor vakili Botir Sayfullayev "Kiberxavfsizlik davr talabi" mavzusida davra suhbat o'tkazdi.</p> <p>Unga ko'ra talabalar internet tarmoqlaridagi rasmiy va norasmiy axborot markazlari, yolg'on tarqatilayotgan e'lonlar, firibga asoslangan turli ko'ngilochar o'yin va ilovalar haqida ma'lumot berdi va ulardan xabardor bo'lishlari shartligi ta'kidlandi.</p> <p>Buning oldini olish uchun talabalarga Kiberxavfsizlik bo'limining rasmiy kanali va bot manzillari ulashildi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi; - Qashqadaryo viloyati IIB Kiberxavfsizlik bo'limi katta tezkor vakili Botir Sayfullayev <p>- Tillar fakulteti tyutorlari</p> <p>Qatnashganlar: talabalar</p>	 	<p>2022-yil 1-dekabr Pedagogika fakulteti</p>
7.	<p>1-DEKABR – BUTUNJAHON OITSGA QARSHI KURASH KUNI</p> <p>Pedagogika fakulteti Talabalar turar joyida "Biz OITS ga qarshimiz" mavzusidagi rasmlar tanlovi o'tkazildi. Tasviriy san'at yo'nalishi talabalar o'z ijod namunalari bilan ishtirok etgan tadbir fakultet tyutorlari va yotoqxona tarbiyachilari tomonidan kuzatib borildi. OITSga qarshi kurashish mazmunini aks ettiruvchi chiqishlar barchaga manzur bo'ldi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi; - Pedagogika fakulteti dekan o'rinosi O'.Umarov; -pedagog tarbiyachi D.Nigmatova; -tyutorlar <p>Qatnashganlar: TTJ talabari</p>	 	<p>2022-yil 1-dekabr Pedagogika fakulteti TTJ</p>

8.	<p>5 MUHIM TASHABBUS. 4-YO'NALISHI</p> <p>Tillar fakulteti O'zbek adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi M.Norbaboyeva Adabiyot o'qitish metodikasi fanidan O'TA-4-20-guruh talabalarini ishtirokida "Muammoli ta'lif texnologiyasi" mavzusida ochiq dars mashg'uloti o'tkazdi.</p> <p>Dars davomida Qamchibek Kenjaning "Baliq ovi" hamda Chexovning "Xameleon" asarlari misolida badiiy asardan muammoli holatlarni tanlab olib hayotiy vaziyatlar bilan solishtirish, muammoning sababini va yechimini tahlil qilish kabi topshiriqlar berilib, talabalar muhokamaga tortildi.</p> <p>"Eydos konsept", "Muammoli vaziyat" va boshqa metodlarning qo'llanishi darsning mazmunli tashkil etilishini ta'minladi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi; - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi; - Tillar fakulteti dekan o'rinosi M.Nurbayeva <p>Qatnashganlar: talabalar</p>		<p>2022-yil 1-dekabr Tillar fakulteti</p>
9.	<p>5 MUHIM TASHABBUS. 2-YO'NALISHI</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligi"ga bag'ishlab, SPORTNING STOL TENNISI turi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.</p> <p>Natijalar bilan tanishing: O'gil bolalar o'rtasida:</p> <p>1- o'rin Tarix yo'nalishi 101-guruh talabasi Ziyodullayev Behruz</p> <p>2- o'rin O'zbek tili va adabiyoti 1-20-guruh talabasi Mahmudov A'loxon</p> <p>3- o'rin O'zga tilli guruhlarda rus tili yo'nalishi 203-guruh talabasi To'raqulov Abbas</p> <p>Qizlar o'rtasida:</p> <p>1- o'rin Giografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi Choriyeva Nigina</p> <p>2- o'rin Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi Ibodullayeva Gulnoza</p> <p>3- o'rin Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi Hamidova Madina G'oliblar Institut ma'muriyatini tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Rektor maslahatchisi G.Yangiboyev; - Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi; - Tillar fakulteti dekani va tyutorlari <p>Qatnashganlar: talabalar</p> 	 	<p>2022-yil 2-dekabr Tillar fakulteti Sport zali</p> <p>https://shdpi.uz/oz/yangilik/tostbmo166998_2070</p>

10.

5 MUHIM TASHABBUS. 2-YO'NALISHI FUTBOL MUSOBAQASI

Pedagogika fakultetida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligi"ga bag'ishlab futbol bo'yicha musobaqa tashkil etilgan edi.

Joriy yilning 2-dekabr kuni musobaqaning final bosqichi bo'lib o'tdi.

G'olib jamoalar bilan tanishing

1- o'rin Jismoniy madaniyat yo'nalishi 5-21-guruh talabalaridan iborat jamoa

2- o'rin Jismoniy madaniyat yo'nalishi 1-21-guruh talabalaridan iborat jamoa

3- o'rin Jismoniy madaniyat yo'nalishi 3-21-guruh talabalaridan iborat jamoa

G'oliblar Institut ma'muriyati tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



2022-yil
2-dekabr
Pedagogika
fakulteti
stadioni

Batafsil:
<https://shdpi.uz/oz/yangilik/rk3vbfmo1669>
982563

11.	<p>"XONLIKLER DAVRIDA O'ZBEK MADANIYATI"</p> <p>Pedagogika fakultetida Ijtimoiy fanlar kafedrasiga o'qituvchisi S.Shukurov tomonidan Boshlang'ich ta'lim 3-21-guruh talabalari bilan ochiq dars mashg'uloti o'tildi.</p> <p>Dars mavzusi "Xonliklar davrida o'zbek madaniyati" bo'lib, dars jarayonida o'sha davr muhiti yaratildi, jumladan xona xonliklar davrida ijod qilgan shoir(a)lar kitoblari, o'sha davrga xos liboslar, taqinchoqlari, musiqa asboblari va turli buyumlari bilan bezatildi.</p> <p>Ushbu dars davomida "Nilufar gulি" metodidan foydalаниlib, talabalarning shaxsiy fikrlashini o'stirish uchun mavzu yuzasidan muhokamali savollar berildi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari: -Pedagogika fakulteti</p> <p>Qatnashganlar: Boshlang'ich ta'lim 3-21-guruh talabalari</p>		2022-yil 2-dekabr Pedagogika fakulteti
12.	<p>E'lon! "TALABALAR TEATR STUDIYALARI" ko'rik-t nlovni o'qaziladi</p> <p>Cliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi hamda Vazirlik huzuridagi 'alaba va o'quvchilarning ma'naviy yuksalishiga ko'maklashish markazi, Madaniyat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasalari teatr studiyalari o'rtasida "talabalar teatr studiyalari" ko'rik-tanlovini e'lon qiladi. Tanlov g'oliblari diplom, esdalik sovg'alari hamda quyidagicha pul yutuqlari bilan taqdirlanadi:</p> <p>"Eng yaxshi spektakl" nominatsiyasi — 60 mln. so'm; "Dolzarb mavzuning sahnaviy talqini uchun" nominatsiyasi — 40 mln. so'm; "Milliy an'ana va qadriyatlarni tarannum etganligi uchun" nominatsiyasi — 30 mln. so'm; "Eng yaxshi erkak roli" nominatsiyasi — 8 mln. so'm; "Eng yaxshi ayol roli" nominatsiyasi — 8 mln. so'm;</p> <p>"Eng yaxshi talabalar teatr studiyasi rahbari" nominatsiyasi — 4 mln. so'm</p>	https://t.me/SdPILuz/5035		
13.	<p>"SHAHRISABZ DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASI"GA SAYOHAT uyuşdırıldı.</p> <p>Sayohat davomida talabalar shahrimizning buyuk tarixi bilan yaqindan tanishdi va soha mutaxassislari tomonidan kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishdi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari: -Tillar fakulteti tyutorlari G.Xusanova, D.Avazova, R.To'raqulova</p> <p>Qatnashganlar: talabalar</p>	 	2022-yil 2-dekabr Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi

14.	<p>SAVOB ISHNI HAR KIM, HAR KUNI QILISH KERAK</p> <p>Tillar fakulteti tyutorlari , "Sohibqiron" MFY raisi R.Mahmudov hamrohligida Bobur ko'chasi 35-uyda istiqomat qiluvchi Eshonqulova Saodat opaning holidan xabar olishdi. "Inson hayotda ko'p qiyinchiliklarga duch kelar ekan. Ba'zidagi bir onlik quvonch barcha qayg'u-alamlardan forig' qiladi. Sizlarning tashrifingiz ham menga shu kayfiyatni bag'ishladi", -deydi, Saodat opa o'z suhbat davomida. Tyutorlarimizning bu kabi xayrli ishlarda ham peshqadamligi tahsinga sazovor.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari: - Rektor maslahatchisi G.Yangiboyev; - Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi; - Tillar fakulteti tyutorlari</p> <p>Qatnashganlar: tyutorlar</p>	 	<p>2022-yil 3-dekabr</p> <p>Shahrisabz "Sohibqiron" MFY</p>
15.	<p>3-DEKABR "XALQARO NOGIRONLAR KUNI"</p> <p>munosabati bilan Shahrisabz davlat pedagogika instituti xodimlari Shahrisabz "Muruvvat" ayyollar internat uyida bo'lishdi. "Muruvvat" uyi tarbiyalanuvchilari uchun bayram dasturxoni yozildi. Shuningdek, milliy kuy-qo'shiqlarimizni aks ettiruvchi konsert dasturi tarbiyalanuvchilarga bir olam quvonch bag'ishladi.</p> 	  	<p>2022-yil 3-dekabr</p> <p>Shahrisabz "Muruvvat" ayyollar internat uyi</p>	

16. “Keljak: ilmli qizlar hamjamiyati” ta’lim-almashinuv dasturini 100 ga yaqin qizlarimiz muvaffaqiyatli yakunlashdi. Ular orasida institutimiz talabalari ham bor.

Mamlakatimizning turli hududlarida yashayotgan qizlarini bir nuqtada onlayn ta’lim orqali birlashtirgan loyihaning, taqdirlash marosimi bo’lib o’tdi. Loyiha muallifi Shahrисabz davlat pedagogika instituti talabasi **Marjona Jo’raqulova**. O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Yosh Maslahatchilar Kengashi hamkorligida tashkil etgan **mualliflik loyihasi** qisqa muddatda o’zining samarali natijalarini ko’rsatmoqda.

Loyiha 2023-yilda o’z doirasini kengaytiradi, ilmiy tashabbuslarda faoliyekni qo’lga oladi va “**qizlardan qizlarga**” formatida kerakli va foydali maslahatlarni ulashadigan, aniq kasb-hunar tanlashga ko’mak bo’ladigan tizimli platformaga aylanishi nazarda tutilgan.

Ma’lumot tariqasida ushbu ta’lim-dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilari qatorida talabamiz **Lola Asadova** ham bor. Talabalarimizning kelgusi faoliyatlarida rivoj tilaymiz!



17. Shahrisabz davlat pedagogika instituti faoliyatiga doir eng muhim yangiliklar hafta davomida.

<https://t.me/ShDPIuz/5051>

18.	<p>TALABA YUTUG'I 5 MUHIM TASHABBUS. 1-YO'NALISHI</p> <p>Shahrisabz davlat pedagogika instituti Musiqa ta'limi yo'nalishi 1 - bosqich talabasi Azamova Sevinch va o'qituvchisi Tursunov Xusniddin Rossiyada bo'lib o'tgan "Prestij" Xalqaro konkursida "Qarotegini" Tojik xalq kuyi bilan ishtirok etib, 1 darajali diplom bilan taqdirlandi.</p> 	<p>Tadbir tashkilotchilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi; - Pedagogika fakulteti <p>Qatnashganlar:</p> <p>Musiqa ta'limi yo'nalishi 1 - bosqich talabasi Azamova Sevinch va o'qituvchisi Tursunov Xusniddin</p>		2022-yil 4-dekabr
19.	<p>5 MUHIM TASHABBUS. 1-YO'NALISHI</p> <p>E'LON! Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabalari o'rtasida joriy yilning 7-dekabr kuni "9-dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"ga bag'ishlangan rasmlar tanlovi o'tkaziladi. Tanlovda faol ishtirok eting! O'tkazilish joyi: Murojaat uchun: B.Asadov 95-005-56-05</p>	<p>RASMLAR TANLOVI o'tkaziladi</p> <p>E'LON! Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabalari o'rtasida joriy yilning 7-dekabr kuni "9-dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"ga bag'ishlangan rasmlar tanlovi o'tkaziladi. Tanlovda faol ishtirok eting! O'tkazilish joyi: Murojaat uchun: B.Asadov 95-005-56-05</p>	<p>Tillar fakulteti Axborot resurs markazi, Soat:10:00</p>	Tillar fakulteti Axborot resurs markazi, Soat:10:00
20.	<p>5 MUHIM TASHABBUS. 1-YO'NALISHI "Kesh nolalari" ansamblı a'zolari konserti</p> <p>Pedagogika fakultetida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50 yilligiga bag'ishlab "Kesh nolalari" ansamblı a'zolari tomonidan konsert dasturi tashkil etildi.</p> <p>Tadbirni Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektor J.Shonazorov kirish so'zi bilan ochib, barchani bayram bilan tabrikladi.</p>		<p>2022-yil 6-dekabr , Pedagogika fakulteti</p> <p>Faollar zali</p>	2022-yil 6-dekabr , Pedagogika fakulteti



21. **8 - DEKABR KONSTITUTSIYA QABUL QILINGAN KUN**
munosabati bilan Pedagogika fakultetida "Konstitutsiya-bosh qomusimiz" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Ushbu tadbirda Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlardan bo'yicha prorektor J. Shonazarov, o'qituvchilar, tyutorlar hamda talabalar ishtirot etdi.

Tadbirda Konstitutsiyamizning 30 yilligiga bag'ishlangan ijodiy va musiqiy chiqishlar, sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Shuningdek, Tasviriy san'at yo'nalishi talabalarini tomonidan chizilgan sur'atlar ko'rgazmasi ham tashkil etildi.

Tadbir tashkilotchilari:

- Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi;
- Pedagogika fakulteti

Qatnashganlar: talabalar



2022-yil
6-dekabr ,
Pedagogika
fakulteti

Faollar zali

22.

5 MUHIM TASHABBUS. 1-YO'NALISHI

"Slavyan madaniyati Kodeksi" festivali o'tkazildi

O'zbekiston ko'pmillatli, bag'rikeng davlat. Shahrishabz davlat pedagogika institutida "Slavyan madaniyati Kodeksi" festivalining "Begona bo'Imagan slavyan tili" loyihasi asosida Korney Chukovskiyning 140 yilligiga bag'ishlangan bellashuv bo'lib o'tdi.

Dastlab, K.I.Chukovskiyning hayoti va ijodi bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlar taqdim etildi. Shuningdek, yozuvchi shaxsiyati bilan bog'liq rasmlar ko'rgazmasi, rus xalq raqslari, mavzu doirasidagi turli boshqotirmalar barcha ishtirokchilar tomonidan yuqori baholandi.

Tadbir tashkilotchilari:

- Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi;
- Tillar fakulteti rus tili va adabiyot fani o'qituvchisi N.Ahmedov

Qatnashganlar: rus tili va adabiyot yo'nalishi 4- kurs talabalari



2022-yil
7-dekabr,
Pedagogika
fakulteti

Faollar zali

23.

KONSTITUTSIYA FAXRIMIZ - G'URURIMIZ

Tillar fakulteti Ijtimoiy gumanitar kafedra o'qituvchilari va **tyutor M. Norova** tomonidan 8-dekabr Konstitutsiya qabul qilinganligining 30 yilligiga bag'ishlangan "Konstitutsiya faxrimiz - g'ururimiz" nomli ma'nnaviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar mavzu doirasida ishtirokchilarga zarur ma'lumotlarni berdilar. Shuningdek, institut talabalari tomonidan sahna ko'rinishi, qo'shiq va raqlar ijro etilib, yig'ilganlarga xush kayfiyat ulashdi. Tadbir so'ngida faol ishtirok etgan talabalarga tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.

Tadbir tashkilotchilari: - Yoshlar bilan ishlash, ma'nnaviyat va ma'rifat bo'limi; - Tillar fakulteti tyutori **M.Norova** **Qatnashganlar:** talabalar



2022-yil
7-dekabr ,
Tillar
fakulteti

Faollar zali

24.	<p>“O’ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINING 30 YILLIGI” ko’krak nishoni bilan bir guruh professor-o’qituvchilar taqdirlanishdi</p> <p>O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligi munosabati bilan, shuningdek, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, mudofaa qudratini oshirishga munosib hissa qo’shgan bir qator professor-o’qituvchilar “O’zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi” ko’krak nishoni bilan taqdirlanishdi. Ular orasida Shahrisabz davlat pedagogika instituti o’qituvchi va xodimlari ham bor. Ular: Qurbanova Ulashoy Bozorovna Safarov Kamol Jamolovich Umarov O’ktam Aminovich Mamatov Mahmud</p>	<p>«Ўзбекистон Конституциясининг 30 йиллиги» эсдалик нишони</p> <p>Олд томони</p>  <p>Орқа томони</p> 	2022-yil 8-dekabr, Qarshi sh.
25.	<p>5 MUHIM TASHABBUS. 1-YO’NALISHI</p> <p>9-DEKABR - XALQARO KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH KUNI ga bag’ishlab o’tkazilgan RASMLAR TANLOVI g’oliblari bilan tanishing:</p> <p>1- o’rin Ergasheva Rayxon. 2- o’rin Burxonova Zarnigor. 3- o’rin Eshbobo耶eva Shaxnoza.</p> <p>Tadbir tashkilotchilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Rektor maslahatchisi G’.Yangiboyev; - Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo’limi Bosh mutaxassisи B.Asadov <p>Qatnashganlar: institut talabalari</p>	 	2022-yil 7-dekabr, Tillar fakulteti ARM

26.	<p>TTJ TALABALARI YASHASH SHAROITI O'RGANILDI</p> <p>Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori A.G'aniyev boshchiligidagi barcha prorektorlar va rektor maslahatchisi va fakultet dekanlari talabalarning yashash sharoitlari bilan tanishish va muammolarini yaqindan o'rganish maqsadida talabalar turar joyida bo'ldilar.</p> <p>Tashrif chog'ida xonalardagi isitish tizimi, yashash sharoitini ko'zdan kechirishdi.</p> <p>Shuningdek, Institut rahbariyati talabalar bilan muammolari, bo'sh vaqtlarini qay tartibda o'tkazayotganliklari haqida suhbat o'tkazdilar.</p>			<p>2022-yil 7-dekabr , Tillar va Pedagogika fakultetlari</p> <p>TTJ</p>
27.	<p>INSTITUT REKTORINING BAYRAM TABRIGI</p> <p>Qadrli yurtdoshlar, vohamiz ahli!</p> <p>Avvalo sizlarni bugungi ayyom - Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 30 yilligi bilan tabriklayman.</p> <p>Ozod va farovon yurt borki, barcha sohadagi rivojlanish, yangilanish va yutuqlarning asosi ya'ni, Konstitutsiyasi bor. Konstitutsiya erkin va ozod yashashimiz, ta'lif olib, mehnat qilishimiz, o'z huquq - burchlarimizni anglashimiz hamda so'z erkinligimizni belgilab beradi.</p> <p>Bugungi kunda Konstitutsiyamizni yanada mukammal bo'lishi uchun o'zgarish kiritishga qaratilgan e'tibor ham tahsinga loyiq.</p>			<p>2022-yil 8-dekabr</p> <p>Batafsil: https://t.me/S_hDPIuz/5098</p>

28.	<p>“SIZ QONUNNI BILASIZMI?” nomli tadbir o’tkazildi.</p> <p>8-dekabr - O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan”liging 30-yilligi munosabati bilan “Siz qonunni bilasizmi?” nomli tadbir o’tkazildi.</p> <p>Tadbir davomida iqtidorli va faol talabalar o’z iste’dodlarini namoyish etib, tezkor savol-javob o’ynilarida faol ishtirok etdilar va talabalar munosib rag’batlantirildi.</p> <p>Tadbir tashkilotchilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo’limi; - Tillar fakulteti tutori G. Husanova va tarbiyachi pedagog U. Qurbanova <p>Qatnashganlar: TTL talabalari</p>		<p>2022-yil 8-dekabr , Tillar fakulteti TTJ</p>
29.	<p>“KONSTITUSIYA-BAXTIMIZ QOMUSI” deb nomlangan badiiy tadbir o’tkazildi.</p> <p>8-dekabr -Konstitusiya qabul qilingan kunga bag’ishlab Pedagogika fakulteti talabalar turar joyida “Konstitusiya-baxtimiz qomus”deb nomlangan badiiy tadbir o’tkazildi. Tadbir O’zbekiston Respublikasi madhiyasi bilan boshlandi. Talabalar turar joyida istiqomat qilayotgan talabalar tomonidan taqdim etilgan turli ko’rinishdagi chiqishlar barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.</p> <p>Tadbir tashkilotchilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo’limi - Pedagogika fakulteti tutori B.Baratov va tarbiyachi pedagog D.Nigmatova <p>Qatnashganlar: TTJ talabalari</p>		<p>2022-yil 8-dekabr , Pedagogika fakulteti TTJ</p>

30.	<p>BADIY ASAR T AHLILI</p> <p>Tillar fakulteti O'zbek adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi G.Qayumova Adabiyotshunoslik asoslaridan fanidan O'TA-3-22-guruh talabalari ishtirokida "Badiy asar tahlili" mavzusida ochiq dars mashg'uloti o'tkazdi.</p> <p>Dars davomida badiy adabiyotning inson hayotidagi o'rni, asar tahlili bilan bog'liq tadqiqot masalalariga alohida to'xtalib o'tildi.</p> <p>Fanga doir atamalarni qamrab olgan boshqotirmalar, turli didaktik o'yin metodlarining qo'llanishi darsning mazmunli tashkil etilishini ta'minladi.</p>		<p>2022-yil 9-dekabr , Tillar fakulteti</p>	
31.	<p>5 MUHIM TASHABBUS. 1-YO'NALISHI Futbol musobaqasi</p> <p>8-dekabr "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun" munosabati bilan Kitob tumanidagi 1-IDUM da Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Jismoniy madaniyat xotin-qizlar sporti 1-21 guruh talabalari tomonidan "4+2" loyihasi doirasida 8-sinf o'quvchilari o'rtasida futbol musobaqasi o'tkazildi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari: - Pedagogika fakulteti</p> <p>Qatnashganlar: Pedagogika fakulteti Jismoniy madaniyat xotin-qizlar sporti 1-21 guruh talabalari</p>		<p>2022-yil 9-dekabr , Pedagogika fakulteti</p>
32.	<p>"O'Z SOG'LIGINGNI O'ZING ASRA"</p> <p>Tillar fakultetining Talabalar turar joyida Institut tibbiyot xodimlari va tarbiyachi-pedagog U.Qurbonovalar tomonidan "O'z sog'ligingni o'zing asra" mavzusida davra suhbat tashkil etildi. Suhbat davomida hozirgi qish mavsumida sog'liqqa e'tiborli bo'lish, shaxsiy gigiyena-qoidalarga qa'tiy rivoja qilish lozimligi haqida fikr-mulohazalar bildirib o'tildi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari: - Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi; - Tillar fakulteti tarbiyachi pedagogi U. Qurbonova</p> <p>Qatnashganlar: Institut hamshiralari, TTJ talabalari</p>		<p>2022-yil 9-dekabr , Tillar fakulteti TTJ</p>

33.	<p>KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH</p> <p>Korrupsiya bu - davlat va jamiyatning rivojiga, xalqning adolatga bo'lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazadigan xavfli jinoyat hisoblanadi.</p> <p>Shu sababdan ham mamlakatimizda ushbu jinoyatning oldini olish va unga qarshi kurashish borasidagi ishlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.</p> <p>"9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" munosabati bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish „Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisasi Asadov Boburxon ;</p> <p>- Tillar fakulteti</p> <p>Qatnashganlar: Institut talabalari; Shahrisabz shahar Adliya bo'limi boshlig'i Umarov Orif Ergashovich</p>   	<p>Tadbir tashkilotchilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Korrupsiyaga qarshi kurashish „Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisasi Asadov Boburxon ; - Tillar fakulteti <p>Qatnashganlar: Institut talabalari; Shahrisabz shahar Adliya bo'limi boshlig'i Umarov Orif Ergashovich</p>		<p>2022-yil 9-dekabr , Tillar fakulteti</p>
34.	<p>E'LON!</p> <p>10-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun. Ushbu munosabat bilan Tillar fakulteti talabalari tomonidan tashkil etilgan "Olam uzra jaranglasin, muqaddas yurt madhiyasi" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbiriga taklif etamiz.</p>		<p>O'tkazilish joyi: Tillar fakultetining Faollar zali vaqt: 11:30</p>	

35.	<p>"OLAM UZRA JARANGLASIN, MUQADDAS YURT MADHIYASI"</p> <p>Tillar fakulteti talabalari tomonidan tashkil etilgan "Olam uzra jaranglasin, muqaddas yurt madhiyasi" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.</p> <p>Tadbirni Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori A.G'aniyev kirish so'zi bilan ochib, "Bugun har bir o'zbek farzandi uchun unutilmas kun. Bugun o'z madhiyamizni anglagan kun. Butun dunyo bizni madhiyamiz orqali tanidi. O'ylaymanki, har biringizdagi Vatanga bo'lgan muhabbat hozirgiday jo'sh urib turadi", -deya ta'kidlab o'tdi.</p> <p>Talabalarimiz tomonidan tayyorlangan chiqishlar yuqori saviyada tashkil etilganligi bilan barchanining e'tibor markazidan joy oldi.</p> <p>✓ Tadbir so'ngida faol talabalar rag'batlantirildi.</p>	 	 	<p>2022-yil 10-dekabr , Tillar fakulteti</p>
36.	<p>5 MUHIM TASHABBUS. 1-YO'NALISHI</p> <p>"IJODKOR TALABALAR" nomli ijodiy kechaning navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Tadbir davomida shoira Nilufar Umarovaning "Havorang nasimlar" nomli kitobining taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Mehmonlar bilan bir qatorda institutimizning Tillar hamda Pedagogika fakulteti ijodkor professor-o'qituvchilari Husniddin Boyqobilov, Mirsanjar Sanayev va ko'plab ijodkor talaba-yoshlarning ijodiy ishlari eshitildi. Ko'tarinki ruhda o'tgan she'riyat kechasini kelgusida ham shunday hamkorlikda tashkillashtirishga kelishib olindi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Korrupsiyaga qarshi kurashish „Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisasi Asadov Boburxon ; - Tillar fakulteti Qatnashganlar: Institut talabalari <p>Taklif etilganlar: QarDU Adabiyotshunoslik kafedrasi o qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Nilufar Umarova, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Samariddin Sayyidzod va QarDU Filologiya fakultetining faol ijodkor talabalari Jovliyev Bahodir, Doston Muhiddin</p>	 	<p>2022-yil 10-dekabr , Tillar fakulteti</p>

37.	<p>TALABA YUTUG'I !</p> <p>SHOHRUX MAMEDOV JAHON CHEMPIO NI BO'LDI</p> <p>Joriy yilning 11-dekabr kuni Yaponiyada dzyudo bo'yicha ko'zi ojizlar o'ttasida "IBSA DZYUDO TOKIO" xalqaro ochiq musobaqasi bo'lib o'tdi. Mazkur musobaqada ishtirok etgan Shohrux Mamedov 73 kg vaznda barcha raqiblari ustidan g'alaba qozonib, Jahon championiga aylandi. Ma'lumot o'mida eslatib o'tamiz, Shohrux Mamedov Pedagogika fakulteti Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabasi hisoblanadi.</p>	<p>Tadbir tashkilotchilari: - Pedagogika fakulteti</p> <p>Qatnashganlar: Shohrux Mamedov, Pedagogika fakulteti Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabasi</p>		<p>2022-yil 11-dekabr , Yaponiya davlati</p>
38.	<p>IJARADA YASHOVCHI TALABALAR HOLIDAN XABAR OLINDI.</p> <p>Hozirgi qish mavsumidan kelib chiqqan holda talabalarning yashash sharoitlari o'r ganilmoxda. Institut rahbarlari va Pedagogika fakultetining tyutorlaridan iborat jamoa Talabalar turar joyidagi qizlar va ijara da yashovchi talabalar holidan xabar oldi. Kitob tumani Sanam MFY So'g'diyona ko'chasi dagi 2. nafar talaba-qizlarimiz istiqomat qiluvchi 35-uyda yaratilgan shart-sharoitlar yuzasidan ijobjiy xulosalarga erishildi. Tashkilotchilar: Rektor maslahatchisi G'.Yangiboyev; Pedagogika fakulteti tyutorlari</p>			<p>2022-yil 13-dekabr , Kitob tumani Sanam MFY</p>
39.	<p>E"LO N! 5 MUHIM TASHABBUS. 2-YO'NALISHI</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'nnaviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi" doirasida Shahrisabz davlat pedagogika institutida Xotin-qizlar Kengashi, Jismoniy madaniyat kafedrasи o'qituvchilari va tyutorlar hamkorligida sportning VOLEYBOL TURI bo'yicha qizlar o'ttasida musobaqa tashkil etildi. Mazkur musobaqaning dastlabki kunida jamoalar saralab olinmoqda. 14-dekabr kuni saralash bosqichidan o'tgan jamoalar o'ttasida final bosqichi bo'lib o'tadi.</p>			<p>2022-yil 13-dekabr , Tillar fakulteti Sport zali</p>

**Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat
va ma'rifat bo'limi boshlig'i:**

A.Berdiyev